

## FRANSUZ MAQOLLARIDA “HAYOT” KONSEPTINING SEMANTIK VA GRAMMATIK MODELLARI

**Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti professori.

**Mamarajabova Muhlis**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

Tel: +998932637605 [mamarajabovamuxlisa5@gmail.com](mailto:mamarajabovamuxlisa5@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19740634>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fransuz paremiologiyasida “hayot” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hayot tushunchasining asosiy semantik modellari, ularning lingvomadaniy asoslari hamda metaforik ifodalanish shakllari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqollarda qo‘llaniladigan grammatik modellar (*La vie + être, vivre, survivre* va boshqalar) orqali hayotning mohiyati, qoidalari va kurash jarayoni qanday ifodalanishi aniqlanadi. Tahlil natijasida fransuz maqollarida hayot konsepti ko‘p qirrali bo‘lib, falsafiy, axloqiy va ijtimoiy mazmunni o‘zida mujassam etishi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** hayot konsepti, paremiologiya, kognitiv tilshunoslik, semantik model, lingvomadaniyat, metafora, fransuz tili, maqol, yashash, omon qolish.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются когнитивно-семантические особенности концепта «жизнь» во французской паремииологии. Анализируются основные семантические модели концепта, их лингвокультурные основы и метафорические способы выражения. Особое внимание уделяется грамматическим моделям (*La vie + être, vivre, survivre* и др.), с помощью которых передаются сущность жизни, её законы и борьба за существование. Результаты исследования показывают, что концепт «жизнь» во французских пословицах является многогранным явлением, отражающим философские, этические и социальные аспекты.

**Ключевые слова:** концепт жизни, паремииология, когнитивная лингвистика, семантическая модель, лингвокультура, метафора, французский язык, пословицы, существование, выживание.

**Abstract.** This article explores the cognitive-semantic features of the concept of “life” in French paremiology. The study analyzes the main semantic models of the concept, their linguocultural foundations, and their metaphorical representations. Special attention is given to grammatical structures (*La vie + être, vivre, survivre, etc.*) that express the essence of life, its rules, and the struggle for existence. The findings demonstrate that the concept of “life” in French proverbs is multidimensional and reflects philosophical, ethical, and social dimensions.

**Keywords:** concept of life, paremiology, cognitive linguistics, semantic model, linguoculture, metaphor, French language, proverb, existence, survival.

“Hayot” konsepti insoniyat tafakkurida eng markaziy va universal tushunchalardan biri hisoblanadi. U biologik mavjudlikdan tashqari, falsafiy, axloqiy va madaniy qatlamlarni o‘zida mujassam etadi. Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida shakllangan murakkab bilim birligi sifatida talqin qilinadi.

“Hayot” konseptining asosiy semantik modellari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. **Hayot – oqim va jarayon.** Misollar:

*La vie est un long fleuve tranquille*

*La vie est un voyage, pas une destination*

Bu birliklarda hayot **dinamik jarayon** sifatida talqin qilinadi. Metaforalar: fleuve (daryo), voyage (sayohat), roue (g'ildirak). Lingvomadaniy jihatdan: hayotning davomiyligi, o'zgaruvchanligi, vaqt bilan bog'liqligi. Bu qarashlar antik falsafaga borib taqaladi. Heraclitus "hamma narsa oqadi" (panta rhei) degan mashhur g'oyani ilgari surgan.

2. **Hayot – kurash va sinov.** Misollar:

*La vie est un combat de chaque instant*

*La vie est un défi à relever*

Bu birliklarda hayot **kurash (combat)** va **sinov (défi)** sifatida tasvirlanadi.

Lingvomadaniy asoslar stoik falsafa va ijtimoiy realizmdan iborat. Seneca fikricha, inson hayoti doimiy sinovlar orqali shakllanadi.

3. **Hayot– maktab va tajriba.** Misollar:

*La vie est une école où l'on n'a jamais fini d'apprendre*

*La vie est la meilleure des leçons*

Bu birliklar hayotni **ta'lim jarayoni** sifatida talqin qiladi. Lingvomadaniy xususiyatlari tajriba ustuvorligi va amaliy bilimning qadridan iborat.

Michel de Montaigne ham tajriba bilimdan ustun turishini ta'kidlagan.

4. **Hayot – qadriyat va ne'mat** Misollar:

*La vie est une chance, saisis-la*

*La vie est un cadeau qu'il faut mériter*

Bu birliklarda hayot qimmatli ne'mat sifatida talqin qilinadi. Lingvomadaniy asoslari xristian dini va axloqiy qadriyatlardan iborat. Saint Augustine hayotni ilohiy in'om sifatida baholaydi.

5. **Hayot – aks ettiruvchi tizim (oyna modeli).** Misollar:

*a vie est un miroir : elle te renvoie ce que tu lui donnes*

*La vie est un jardin, on y récolte ce que l'on sème*

Bu birliklarda sabab-natija munosabati aks etadi: nima bersang – shuni olasan.

Lingvomadaniy jihatdan axloqiy javobgarlik va individual mas'uliyatni ifodalaydi.

Bu model George Lakoff konseptual metafora nazariyasiga mos keladi.

6. **Hayot – o'zgaruvchanlik va beqarorlik.** Misollar:

*La vie est faite de hauts et de bas*

*La vie ne tient qu'à un fil*

Bu birliklar hayotning: beqarorligi, nozikligi, vaqtinchaligini ko'rsatadi. Lingvomadaniy asoslari romantizm va falsafiy pessimizmga asoslangan.

Fransuz paremiologiyasida "hayot" (la vie), "yashash jarayoni" (vivre), "mavjudlik" (existence), "vitalité", "tiriklik", "omon qolish" (survivre) kabi semantik yadrolar atrofida tuzilgan maqollar maxsus grammatik modellar orqali shakllanadi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, bu modellar ontologik ta'rif, aksiologik baho, metaforik qarash, hayotiy tajriba asosidagi xulosalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

*"La vie" bilan bog'liq modellarning faolligi va vazifasi.*

“Hayot” mavzusidagi maqollarda eng faol modellar – *La vie + être + nom* va *La vie + être + adjectif* tuzilmalaridir. Bu modellar son jihatidan ham boshqa barcha modellardan ustun, ular yetakchi pozitsiyani egallaydi. Buning sababi hayot tushunchasining fransuz tafakkurida metaforik va ontologik izohni talab qilishi bilan bog‘liq. “*Être*” fe‘lining qo‘llanishi hayotni predmet sifatida ta’riflashga, unga mohiyat yuklashga imkon beradi.

Masalan, hayot “*maktab*”, “*oyna*”, “*sayohat*”, “*dars*”, “*jang*”, “*g‘azna*”, “*sir*”, “*g‘ildirak*” sifatida tasvirlanadi — bularning barchasi hayotning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini bildiradi. Shuningdek, *participe passé* bilan yasalgan model (*La vie + être + participe passé + complément*) ham hayotning jarayon ekanligi, undagi ko‘tarilish va pasayishlarning tabiiy siklligi haqida tasavvur beradi. Demak, bu modellar ko‘proq hayotning mohiyati va metaforik tabiatini ochib beradi.

“*Vivre*” bilan bog‘liq modellar: amaliy hayot qonunlari.

“*Vivre*” fe‘li ishtirok etgan maqollarda eng ko‘p uchraydigan struktura – *qui + verbe + infinitif + verbe modal + infinitif* modelidir. Bu tarkib hayot faqat nazariya emas, balki amaliy qoidalariga asoslanganini ko‘rsatadi. Model o‘zida shart, zarurat, maslahat kabi semantik funksiyalarni jamlaydi. Yana juda faol model — *but + vivre + il faut + infinitif*. Bu konstruktsiya fransuz hayot falsafasining asosiy ruhini ifodalaydi: yashash uchun zarur bo‘lgan narsani bilish va uni bajarish kerak. “*Vivre + complément + structure explicative*” modeli esa hayotning sabab–natija aloqalariga urg‘u beradi. Demak, *vivre* bilan tuzilgan modellar ko‘proq axloqiy-didaktik tavsiyalarni, hayotiy tajriba asosidagi umumiy qoidalarni ifodalaydi.

“*Existence*”, “*vitalité*”, “*vivant*” modellarning vazifasi.

Bu uch semantik guruh haqidagi maqollar kamroq, ammo juda chuqur ma’noga ega.

*Existence* modellarida harakatdan ko‘ra holat, ya’ni “borliq” muammosi aks etadi. Ayniqsa “*verbe pronominal*” ishtirokidagi modellar mavjudlikning ichki jarayonlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. *Vitalité* bilan bog‘liq modellar hayotning sifat jihati, ichki kuch, ruhiy barqarorlik, iroda masalalarini yoritadi. Bu modellar insonning ichki energiyasi faqat mehnat va kurash orqali saqlanishini anglatadi. *Vivant* modellarida esa ko‘pincha qiyoslash va ontologik tavsif ustunlik qiladi. Bu modellarda tiriklik faoliyat, harakat va ong bilan bog‘lanadi.

“*Survivre*”, “*subsister*”, “*la survie*” modellari.

Bu guruhda eng faol model — *but + survivre + il faut + infinitif* hamda *survivre + complément + verbe* tuzilmalaridir. Ular kurash, chidash, moslashish, ehtiyot bo‘lish kabi ma’nolarni ifodalaydi. “*Subsister*” modellarida esa soddalik, sabr-toqat, kam bilan yashash g‘oyasi ustunlik qiladi. Bu yerda hayot minimal sharoitlarda ham davom etishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, quyidagi modellar eng faol hisoblanadi:

*La vie + être + nom / adjectif*

hayotning mohiyatini, metaforik tasvirini ifodalaydi

*La vie / vivre + négation* yoki *modal + infinitif*

hayot qonunlari, real sharoit va cheklavlarni bildiradi

*Qui + verbe + modal + infinitif*

umumiy hayotiy qoidalar va maslahatlarni ifodalaydi

*Survivre / subsister + il faut + infinitif*

kurash, chidamlilik va omon qolish g‘oyasini ifodalaydi

Tahlildan ko‘rinadiki, fransuz maqollarida hayotga oid fikrlar asosan takrorlanuvchi grammatik modellarga asoslanadi. Bu modellar til vositasi bo‘lish bilan birga, xalq tafakkurining mahsulidir. “*La vie + être*” modeli hayotni ta’riflaydi, “*vivre*” modellar hayot qoidalarini belgilaydi, “*survivre*” va “*subsister*” modellar esa hayot uchun kurashni ifodalaydi.

Shunday qilib, fransuz maqollari hayotni uch asosiy nuqtai nazardan yoritadi, bular hayotning mohiyati, hayotning qoidalari, hayot uchun kurash. Bu esa ularning nafaqat lingvistik, balki chuqur falsafiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Степанов Ю. С. Французская стилистика в сравнении с русской. -М., 2002. - С. 221.
2. Сувонова Н. Frazeologiyada ro‘zg‘or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir (fransuz va o‘zbek tili materialida) //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 35.
3. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). Humorous phraseologisms-as a tool offunny assessment of real events (in French material). In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences.
4. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3(32), 192–205 <https://journal.fledu.uz>
5. Сувонова Н. Н., Долиева Л.Б. Французча ономатопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон рухияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 2 (31). – Б. 65–79. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan” <https://journal.fledu.uz>